



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 235 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.




MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	



BANK XIZMATLARI OMMABOPLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Kasimova Muxlisa Anvar qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Phd mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0005-8577-0470

E-mail: kasimova.mukhlisaa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank xizmatlarining ommabopligini oshirishning zamonaviy yo'llari va istiqbollari tahlil qilingan. Unda bank xizmatlarining aholiga yaqinlashtirilishi, raqamli texnologiyalar asosida yangi xizmat turlarining joriy qilinishi, qishloq joylarida bank infratuzilmasini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va kredit siyosatini liberallashtirish orqali aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada statistik ma'lumotlar asosida O'zbekistonda bank xizmatlaridan foydalanish dinamikasi ko'rsatilgan, hamda ushbu xizmatlarni keng ommaga yetkazish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar tavsiya etilgan. Taklif etilgan strategiyalar moliyaviy inklyuziyani kuchaytirishga, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirishga va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, ommaboplik, moliyaviy savodxonlik, raqamli bank xizmatlari, infratuzilma, qishloq bank tizimi, moliyaviy inklyuziya, kredit siyosati, ishonch muammosi, mobil bank, agentlik banki, raqamli transformatsiya, bank xizmatlarining diversifikatsiyasi, iqtisodiy islohotlar, moliyaviy xizmatlar sifati, mijozlar ehtiyoji, innovatsion moliyaviy mahsulotlar, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi.

Abstract: This article analyzes modern methods and prospects for increasing the accessibility of banking services. It emphasizes the importance of bringing banking services closer to the population, introducing new service types based on digital technologies, expanding banking infrastructure in rural areas, enhancing financial literacy, and liberalizing credit policy to strengthen public trust in the banking system. The article also presents statistical data illustrating the dynamics of banking service usage in Uzbekistan and recommends measures to expand the reach of these services to the broader public. The proposed strategies aim to enhance financial inclusion, reduce the informal economy, and support the development of the digital economy.

Key words: banking services, accessibility, financial literacy, digital banking services, infrastructure, rural banking system, financial inclusion, credit policy, trust issues, mobile banking, agency banking, digital transformation, banking service diversification, economic reforms, quality of financial services, customer needs, innovative financial products, level of banking service usage.

Аннотация: В данной статье проанализированы современные пути и перспективы повышения доступности банковских услуг. Отмечена важность приближения банковских услуг к населению, внедрения новых видов услуг на основе цифровых технологий, расширения банковской инфраструктуры в сельской местности, повышения финансовой грамотности и либерализации кредитной политики для укрепления доверия населения к банковской системе. Кроме того, в статье на основе статистических данных показана динамика использования банковских услуг в Узбекистане и предложены меры, необходимые для доведения этих услуг до широкой аудитории. Предложенные стратегии направлены на усиление финансовой инклюзии, сокращение теневой экономики и развитие цифровой экономики.



Ключевые слова: банковские услуги, доступность, финансовая грамотность, цифровые банковские услуги, инфраструктура, сельская банковская система, финансовая инклюзия, кредитная политика, проблема доверия, мобильный банк, агентский банк, цифровая трансформация, диверсификация банковских услуг, экономические реформы, качество финансовых услуг, потребности клиентов, инновационные финансовые продукты, уровень использования банковских услуг.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida moliyaviy sektorni chuqur isloh qilish, bank xizmatlari sifatini yaxshilash va ularni aholining barcha qatlamlariga yaqinlashtirishga qaratilgan tizimli choralar ko'rilmogda. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish, raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish orqali moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli¹ “Bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi to'g'risida”gi farmoni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli² “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni mazkur yo'nalishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlarda bank xizmatlarining ommabopligini oshirish, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, aholining bank tizimiga jalb etilishini rag'batlantirish hamda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan.

Shuningdek, Prezidentning 2023-yil 9-martdagi PQ–102-sonli³ “Aholi va tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida barcha hududlarda bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish, qishloq joylarda agentlik bank tizimini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks ishlar yo'lga qo'yildi.

Mamlakatda bank xizmatlaridan foydalanish darajasi bosqichma-bosqich ortib borayotgan bo'lsa-da, hali hanuz ayrim hududlarda, ayniqsa chekka va qishloq joylarda moliyaviy xizmatlar ommaviy emas. Bu esa aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan, bank xizmatlarini ommalashtirish orqali aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirish, ishonch muhitini yaratish va zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimini shakllantirish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada bank xizmatlari ommabopligini oshirishning muhim yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank xizmatlarining ommabopligini oshirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'plab olimlar tomonidan yoritilgan bo'lib, ularning yondashuvlari tahlil qilinarcan, quyidagi asosiy yo'nalishlar ajralib chiqadi: moliyaviy inklyuziya, raqamli bank xizmatlari, ishonch muammosi, hududiy tengsizlik, xizmatlar sifati va moliyaviy savodxonlik.

Halimov A. (2023) – “Bank xizmatlarining ommabopligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni” nomli maqolasida muallif raqamli bank xizmatlarining kengayishi ommaboplikka qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Muallifning asosiy yondashuvi shundaki, mobil ilovalar, internet-bank va QR-to'lovlar orqali aholining bank tizimiga kirish imkoniyati sezilarli oshadi. Bu fikr amaliy ahamiyatga ega bo'lsa-da, muallif texnologik vositalardan foydalanishdagi raqamli tafovut, xususan, yoshi katta yoki texnik bilimiga ega bo'lmagan aholining ehtiyojlari yetarlicha yoritilmagan.

Mamatqulov B. (2022) – “Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishda davlat siyosatining roli” nomli maqolasida bank xizmatlarining keng tarqalishi uchun huquqiy-institutsional bazaning ahamiyatini asoslab beradi. U Prezident farmonlari, Markaziy bank qarorlari asosida moliyaviy inklyuziya uchun normativ muhit yaratilganini ta'kidlaydi. Biroq, ushbu ishda xususiy banklar roli, ularning strategiyasi va raqobat muhitiga ta'siri kabi jihatlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Karimova D. (2021) – “Qishloq joylarda bank xizmatlari ommabopligini oshirish masalalari” nomli tadqiqotida muallif hududiy tengsizlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Unda qishloq joylarda bank filiallari va infokiosklar yetishmasligi, aholining transport va aloqa vositalariga cheklangan kirishi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilib, agentlik bank tizimi taklif etiladi. Bu yondashuv dolzarb bo'lsa-da, Karimova xizmatlar sifati va xavfsizlik choralari masalasini chuqur yoritmagan.

Xalqaro tajribalar ham bu borada muhim o'ringa ega. Masalan, Jahon bankining “Global Financial Development Report” (2023) hisobotida moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari, bank xizmatlariga kirish

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.03.2023 yildagi PQ-102-son <https://lex.uz/ru/docs/-6417192>



imkoniyatlarini oshirishdagi innovatsion yondashuvlar, xususan, mobil bank, agentlik bank tizimi, fintech kompaniyalari hamda sun'iy intellektidan foydalanish imkoniyatlari keng yoritilgan. IMF (2022) tomonidan tayyorlangan "Financial Access and Inclusion in Central Asia" nomli tahliliy hisobotda esa Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekistonda bank xizmatlariga kirishdagi asosiy to'siqlar va ularni yengib o'tish mexanizmlari o'rganilgan.

Shuningdek, Demirgüç-Kunt, A., & Klapper, L. (2022) – Jahon banki tomonidan tayyorlangan "Measuring Financial Inclusion around the World" nomli ilmiy hisobotda bank xizmatlarining global ommaboplik ko'rsatkichlari, gender va daromad bo'yicha tafovutlar tahlil qilinadi. Mualliflar statistik usullar asosida rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekiston singari davlatlarda bank xizmatlarining kengayishi uchun asosiy to'siq moliyaviy savodxonlik va ishonch yetishmasligi ekanini aniqlagan. Bu tahlil asosli, biroq hisobotda har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yetarlicha inobatga olinmaydi.

Mualliflar bank xizmatlarining ommabopligini oshirish masalasiga turli nuqtai nazardan yondashgan: ayrimlari texnologik rivojlanishni, boshqalari esa institutsional muhitni ustuvor deb hisoblagan. Biroq ularning ko'pchiligi kompleks yondashuv — ya'ni raqamli texnologiyalar, hududiy infratuzilma, moliyaviy savodxonlik va bank tizimiga bo'lgan ishonch muammolarini birgalikda hal etish zaruratini to'liq qamrab olmagan.

Shuning uchun ushbu maqolada mavjud adabiyotlardagi cheklavlarni bartaraf etish maqsadida bank xizmatlarining ommabopligi masalasiga kompleks tahliliy yondashuv asosida yondashiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bank xizmatlarining ommabopligini baholash, mavjud holatni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asoslari quyidagi elementlarga tayanadi:

Tadqiqotda deskriptiv (ta'riflovchi) va analitik yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Deskriptiv yondashuv yordamida O'zbekiston hududlarida bank xizmatlaridan foydalanish holati statistik raqamlar asosida tavsiflandi, analitik yondashuv orqali esa mavjud muammolar, ularning sabab-oqibatlar va rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun quyidagi birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalanildi:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillardagi statistik byulletenlari;

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM) hisobotlari;

Jahon bankining Global Findex Database 2021 ma'lumotlari;

Amaldagi Prezident farmonlari va qarorlari (2022–2023);

Ilmiy maqolalar, tahliliy sharhlar va OAVdagi dolzarb materiallar.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjatlar asosida metodik yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank xizmatlarining ommabopligi darajasi mamlakatdagi moliyaviy inklyuziya, aholi moliyaviy faolligi va raqamli iqtisodiyot rivojlanishining muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib, aholining bank hisobvarag'iga ega bo'lganlar ulushi 61,3 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 45,2 foizni, 2023-yilda esa 53,8 foizni tashkil etgan edi. Ushbu raqamlar so'nggi yillarda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va moliyaviy xizmatlar infratuzilmasi kengaytirilayotganini ko'rsatadi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi poytaxt va viloyat markazlarida yuqori bo'lsa-da, qishloq joylarda bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda. Masalan, 2024-yil holatiga ko'ra, Toshkent shahrida bank hisobvarag'iga ega aholining ulushi 78 foizni tashkil etsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida bu ko'rsatkich 45–50 foiz atrofida bo'lgan.

Bu holatning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Qishloq hududlarda bank filiallari va infokiosklar yetarli emas;

Mobil va internet aloqasi cheklangan;

Aholining moliyaviy savodxonligi past;

Bank tizimiga bo'lgan ishonchsizlik saqlanib qolmoqda.

2022–2024-yillar davomida raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 9,2 milliondan 14,6 millionga yetdi. Mobil ilovalar orqali to'lovlar soni ham 2 barobarga oshgan. Bu esa aholi orasida elektron to'lovlarga nisbatan ishonch ortayotganini bildiradi. Shu bilan birga, banklar tomonidan taklif etilayotgan raqamli xizmatlar orasida "Click", "Payme", "Apelsin", "Anorbank", "TBC Bank" kabi ilovalarning faoliyat samaradorligi yuqori baholanmoqda.



Biroq ayrim muammolar ham mavjud:

Raqamli xizmatlar faqat yosh va texnik bilimga ega foydalanuvchilar orasida ommalashmoqda;

Bank ilovalari barcha hududlarda bir xil darajada ishlamaydi;

Internetga bog'liq texnik nosozliklar xizmat sifati va tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ham yuqori. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan o'tkazilgan 2023-yilgi so'rov natijalariga ko'ra, o'z moliyaviy resurslarini rejalashtirish, jamg'arma va kredit mahsulotlaridan foydalanishni tushunish darajasi yuqori bo'lgan aholining 70 foizi faol bank mijozlariga aylangan. Aksincha, bu boradagi bilim darajasi past bo'lganlarda esa bu ko'rsatkich 35–40 foiz atrofida qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida bank xizmatlaridan foydalanish darajasi, raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati hamda bank infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlar 2022–2024-yillar oralig'idagi o'sish dinamikasini va hududlar o'rtasidagi tafovutni yaqqol ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston viloyatlarida bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari (2022–2024-yillar)*

Viloyat/Shahar	2022-yil: Bank hisobiga ega aholining ulushi (%)	2023-yil (%)	2024-yil (%)	2024-yil: 10 ming aholiga to'g'ri keladigan bank xizmatlari nuqtasi soni	Raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar ulushi (%)
Toshkent shahri	65.1	72.4	78.3	4.9	81.2
Andijon	54.2	60.5	66.1	3.8	68.7
Farg'ona	52.8	59.2	65.0	3.6	66.4
Samarqand	48.5	54.7	60.3	3.2	59.8
Surxondaryo	41.0	45.6	50.2	2.1	45.9
Qashqadaryo	40.3	44.9	49.1	1.6	43.5
Qoraqalpog'iston R.	39.8	43.3	47.6	1.8	42.1
O'zbekiston bo'yicha o'rtacha	45.2	53.8	61.3	3.0	60.7

Tahlillarga ko'ra:

Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlarida bank hisobiga ega aholining ulushi respublika o'rtacha darajasidan ancha yuqori. Bu hududlarda bank infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi, raqamli xizmatlarning keng ommalashgani, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligi yuqoriligi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

Aksincha, Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rsatkichlar nisbatan past. Ushbu hududlarda 2024-yilda bank hisobiga ega aholining ulushi 50 foizdan kam bo'lib qolmoqda. Shuningdek, har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan bank xizmatlari nuqtalari soni ham bu viloyatlarda eng past ko'rsatkichlarni tashkil qilmoqda.


Raqamli bank xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ham o'xshash tendensiyalar kuzatiladi. Toshkent shahri va Farg'onada foydalanuvchilar ulushi mos ravishda 81,2 foiz va 66,4 foizni tashkil etsa, Qashqadaryo va Qoraqalpog'istonda bu ko'rsatkich 43–42 foiz atrofida.

Ushbu tahlillar bank xizmatlari ommabopligining hududiy nomutanosiblik va infratuzilma yetishmovchiligi muammolari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli xizmatlar imkoniyatlarining barcha qatlamlarga teng yetib bormayotganligi, moliyaviy xizmatlardan foydalanishda raqamli tafovut mavjudligini tasdiqlaydi.

Shu bois, bank xizmatlarining ommabopligini oshirishda hududiy infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda raqamli xizmatlar texnologiyalarini chekka hududlarda ommalashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

2022–2024-yillar davomida O'zbekistonning ayrim viloyatlari kesimida aholining bank hisobiga ega bo'lish darajasi tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha hududlarda ko'rsatkichlar ijobiy dinamikani namoyon qilmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlarida bank xizmatlaridan foydalanish darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligicha qolmoqda (1-rasm).

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari (2022–2024), Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (2024).




1-rasm. 2022–2024-yillarda hududlar bo'yicha bank hisobiga ega aholining ulushi (%)

Ayni paytda Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkichlar ancha past bo'lib, bu holat ushbu hududlarda bank xizmatlarining infratuzilmasi sust rivojlanganligi, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi hamda raqamli xizmatlarning yetarli darajada ommalashmaganligi bilan izohlanadi.

Rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlararo nomutanosiblik bank xizmatlari ommabopligini ta'minlashda hanuzgacha muhim muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli, chekka hududlarda infratuzilmani rivojlantirish, mobil bank xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish zarur.

O'zbekiston Respublikasining yetti asosiy hududi bo'yicha 2024-yilda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi foizlarda ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahri (78,3%) eng yuqori ulushga ega bo'lib, poytaxtdagi texnologik imkoniyatlar, bank infratuzilmasining rivojlanganligi va moliyaviy savodxonlik darajasining yuqoriligi bunga asosiy sabab sifatida ko'rsatiladi (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda hududlar bo'yicha bank xizmatlaridan foydalanish ulushi (%)⁵

Aksincha, Qashqadaryo (49,1%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (47,6%) va Surxondaryo (50,2%) viloyatlarida bank xizmatlarining ommabopligi past darajada qolmoqda. Bu holat hududiy infratuzilmaning

5 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



yetishmasligi, raqamli texnologiyalarning cheklanganligi, shuningdek, aholining moliyaviy bilim darajasining pastligi bilan izohlanadi.

Rasm hududlar o'rtasidagi moliyaviy inklyuziya darajasidagi tafovutlarni aniq ko'rsatib, bank xizmatlarini ommaviylashtirishda hududiy yondashuv zarurligini asoslaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalar aniqlandi:

Bank xizmatlari ommabopligi o'smoqda, biroq bu o'sish notekis va hududiy tafovutlar mavjud.

Raqamli xizmatlarning joriy etilishi moliyaviy kirish imkoniyatini oshirdi, lekin raqamli tafovut (yosh, texnologik savodxonlik, hududiy internet qamrovi) mavjud.

Moliyaviy savodxonlik bank xizmatlaridan foydalanishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bank tizimiga bo'lgan ishonch muammosi, ayniqsa norasmiy iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi qatlamlar orasida, hanuz dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Qonunchilik bazasi mustahkamlanayotgan bo'lsa-da, uning amaldagi tatbiqoti, ayniqsa chekka hududlarda, sust kechmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank-moliya tizimi so'nggi yillarda faol islohotlar bosqichiga kirib bormoqda. Jumladan, bank xizmatlarini keng joriy etish, ularni aholining barcha qatlamlari uchun ommabop qilish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish yo'nalishida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Mazkur tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelinmoqdaki, bank xizmatlarining ommabopligi sezilarli darajada oshmoqda, ammo bu jarayon barcha hududlarda va ijtimoiy qatlamlar kesimida bir xilda kechmayapti. Hududlar o'rtasida bank xizmatlaridan foydalanish darajasida 25–30 foizgacha tafovutlar mavjud. Raqamli bank xizmatlarining kengayishi aholi, ayniqsa yosh avlod orasida moliyaviy tizimga kirishni yengillashtirmoqda. Shunga qaramay, texnologik vositalardan foydalanish imkoniyati cheklangan ijtimoiy qatlamlar — keksalar, uy bekalar va chekka hudud aholisi — bu jarayonda orqada qolmoqda. Moliyaviy savodxonlik darajasi va bank xizmatlaridan foydalanish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan aholi bank xizmatlaridan faolroq va samaraliroq foydalanmoqda. Shu bilan birga, bank tizimiga bo'lgan ishonch darajasi hali yetarli emas, ayniqsa rasmiy sektordan tashqarida faoliyat yurituvchi qatlamlar orasida. Bu omil xizmatlardan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hududiy infratuzilma va texnologik imkoniyatlarning yetarli emasligi bank xizmatlarining teng taqsimlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Qishloq joylarda bank filiallari sonining kamligi, raqamli xizmatlar infratuzilmasining zaifligi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu xulosalar asosida bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, hududiy moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur bo'lib, bu borada qishloq va chekka hududlarda yangi bank filiallari, infokiosklar va agentlik bank xizmatlari tarmog'ini kengaytirish hamda mobil aloqa va internet qamrovini oshirish orqali raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish lozim. Buning uchun maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus darslar joriy etish, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar orqali interaktiv va ommabop moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar — nafaqaxo'rlar, nogironligi bor shaxslar va kam ta'minlangan oilalar uchun soddalashtirilgan xizmatlar va preferensiyalar (komissiyasiz xizmatlar, arzon kreditlar)ni taqdim etish zarur.

Bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash ham dolzarb vazifa bo'lib, bu borada bank xizmatlarida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirish, mijozlar huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik asoslarini takomillashtirish lozim. Raqamli xizmatlarni barcha qatlamlar uchun qulaylashtirish ham muhim bo'lib, oddiy interfeysli, o'zbek tilida ishlovchi va raqamli savodxonligi past foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan mobil ilovalarni yaratish hamda raqamli xizmatlardan foydalanishni o'rgatuvchi bepul treninglar va ko'rsatmalarni joriy etish zarur.

Ushbu takliflar bank xizmatlarining ommabopligini ta'minlashda tizimli yondashuvni talab etadi. Davlat siyosati, bank tizimi islohotlari va raqamli transformatsiya sinxron holda olib borilsa, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini keskin oshirish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy inklyuziyani chuqurlashtiradi va iqtisodiyotda rasmiy sektor ulushining ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi to'g'risida (PF–5992-son farmon). <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (PF–60-son farmon). <https://strategy.gov.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023). Aholi va tadbirkorlik subyektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ–102-son qaror). <https://lex.uz>



4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Moliyaviy xizmatlar statistik byulleteni. Toshkent: O'zR MB nashriyoti. <https://cbu.uz>
5. Halimov, A. (2023). Bank xizmatlarining ommabopligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(6), 45–52.
6. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2023). O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya holati va istiqbollari. Toshkent. <https://review.uz>
7. World Bank. (2023). Global Financial Development Report 2023: Financial Inclusion and Technology. Washington, DC: World Bank Group. <https://worldbank.org>
8. International Monetary Fund (IMF). (2022). Financial Access and Inclusion in Central Asia. Washington, DC: IMF Publications. <https://imf.org>
9. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S., & Hess, J. (2022). The Global Findex Database 2021: Measuring financial inclusion and the fintech revolution. World Bank Publications. <https://www.worldbank.org>
10. Karimova, D. (2021). Qishloq joylarda bank xizmatlari ommabopligini oshirish masalalari. Bank ishi va moliya, 2(3), 60–66.
11. Mamatqulov, B. (2022). Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirishda davlat siyosatining roli. Iqtisodiy tadqiqotlar, 3(1), 21–27.
12. Qodirov, B. R. (2023). Moliyaviy savodxonlik va bank xizmatlaridan foydalanish o'rtasidagi bog'liqlik. Ilm-fan va amaliyot, 2(4), 112–117.
13. Nurmatov, D. K. (2021). Bank infratuzilmasining hududiy rivojlanishi: muammolar va yechimlar. Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, 3(3), 85–92.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
